

Shokirova Surayyo Zokirxon qizi*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**Defektologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tiflotexnika mohiyati, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot beriladi. Tiflotexnika – ko'rilar, ko'zi ojizlar va ko'rkarlarni o'qitish, mehnat faoliyatiga tayyorlash, ularga madaniy maishiy xizmat ko'rsatish, ko'zi ojizlarning ko'rish qobiliyatini kuchaytirish va tiklash uchun mo'ljallangan maxsus asbobsozlik sohasi.

Kalit so'zlar: tiflotexnika, ko'zi ojiz, tiflopsixologiya, oftalmologiya, tibbiy psixologiya, tiflopedagogika, brayl, vizual, zaif ko'ruvchi.

Tiflotexnika oliy nerv faoliyati fiziologiyasi, oftalmologiya, ko'rish neyrofiziologiyasi, elektrofiziologiya, fiziologik optika, ko'rish gigiyenasi, umumiy muhandislik va tibbiy psixologiya, tiflopedagogika, tiflopsixologiya, aloqa nazariyasi, elektronika, axborotlar nazariyasi va boshqa sohalarga asoslanadi. Elektron tiflotexnika narsalar, vizual jarayonlar va hodisalar to'g'risida ko'rلarga obyektiv axborot beradi. Ko'rilar va ko'zi ojizlarning odatdagi kitob, jurnali, gazeta va boshqalarni o'qishlari uchun oddiy harflarni ovoz, taktil, taktillitrama signallarga aylantirib beruvchi o'qish mashinalari ishlab chiqilgan. Maxsus apparatlar maktablar va boshqa bilim yurtlarida o'tkaziladigan amaliy ishlarida ko'r va ko'zi ojizlarning atrofdagi narsalar, jarayonlar va hodisalar to'g'risida muayyan tasavvur qila olishlariga imkon beradi. Ko'rlearning ko'cha kuyda mo'jal olishlarini osonlashtirish uchun tovush yoki taktil signalizatsiyali elektron asboblar yaratilgan, maxsus elektron hassalar ishlab chiqarilgan.

Ko'rilar va ko'r-karlarning yozishlari uchun L. Brayl tizimida turli asboblar va maxsus yozuv mashinkalari ishlab chiqarilgan. Ko'zi ojizlar uchun maxsus linzalar, proyeksiyon apparatura, o'qish moslamalari, maktablardagi frontal mashg'ulotlar uchun berk tizimdagи televizion qurilmalar mavjud. Bunday vositalarning yangi turlarini ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ko'zi ojizlarning ko'rish qobiliyatini kuchaytirish va tiklash uchun turli tuman optik asboblar yaratilgan. Ko'rilar va ko'zi ojizlarning mehnat faoliyatiga ko'maklashish uchun ish unumдорligini oshirishga yordam beradigan, mehnat xavfsizligini ta'minlaydigan qurilmalar ishlab chiqarilgan. Tiflotexnika ko'z va qulog'ida kamchiliklar bo'lgan odamlarning hayot kechirishi va mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida qo'llanuvchi tiflotexnika ko'rishda nuxsoni bo'lgan bolalarga fazoda mo'jal olish malakalari asosida xarakat qilish tabiiy ehtiyojini rivojlantirish va ko'rlik asosida yuzaga kelgan va bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Tiflotexnikani ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar hayotiy ehtiyojlarini qondirishda, bilim asoslariga o‘rgatishdagi o‘rni beqiyosdir. Shu sabab tiflotexnikani qo‘llash mактабгача tarbiya muassasalari boshlanadi.

Tiflopedagog va uning rahbarligida ishlovchi konstuktor ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolani hayotida ozgina miqdorda bo‘lsa ham, ko‘rish qoldig‘i muhim ahamiyatga ega ekanligini doimo esda tutish lozim.

Tiflotexnikani qo‘llash asosida shu ko‘rish qoldig‘idan ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish mumkin. Tiflotexnika ko‘rlik asosidagi yoki organizm faoliyatini keng miqyosida stimullaydi, ularni sezgilarini rivojlantiradi, qo‘llash qobiliyatidan mahrum hayot faoliyatida zarur malaka, ko‘nikmalarni shakllantirishni tezlashtiradi va yengilashtiradi. Ta’lim- tarbiya jarayonida tiflotexnikani qo‘llash ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni sezgi xususiyatlarini hisobga olinishi kerak. Ko‘rishda nuqsoni bor bolalar hayotida sezish malakasi katta ahamiyatga ega. Masalan, ko‘r bola o‘yinchoq bilan o‘ynash jarayonida u haqidagi to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Ta’lim tarbiya jarayonida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning eshitish va sezgi qobiliyatidan keng foydalanish tiflotexnik vositalar asosida amalga oshadi. Maktab yoshidagi ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tarbiya jarayonida fazoviy tasavvurni rivojlantirish maqsadida katta hajmli qurilish materiallaridan tiflotexnikasidan maqsadga muvofiqdir. U yordamida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘zları o‘qiydigan maktab, yashaydigan uylarini ko‘rib, ular haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Tiflotexnik vositalar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni hayotda o‘z o‘rnini topishda kata ahamiyatga ega. Zamonaviy tiflotexnika asosan uch yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatadi:

O‘quv ishlab-chiqarish, maishiy tiflotexnikaning o‘quv maqsadi o‘quv jarayoni, fanni o‘zlashtirishni optimallashtirish, hamda ko‘r va zaif ko‘rvuchilarni ishlab chiqarishga o‘rgatish tiflotexnikani moddiy texnika bazasini yaratish bu ko‘r va zaif ko‘rvuchilar nazoratidan predmetni aniq tasavvur etish uchun hizmat qilish demakdir.

Eng asosiy maqsad tiflotexnika natijasida ko‘r va zaif ko‘rvuchilar tashqaridan axborot ola bilish, ma’lum vaqt ichida ishlash, iqtisodiy va texnik funksiyalarni bo‘ysuntirishdan iborat. Bundan tashqari ko‘r va zaif ko‘rvuchilar uchun juda ko‘p optik moslamalar, texnik moslamalar va apparatlar mavjud. Optik moslamalarga turli xil lupalar (jumladan qo‘l tayanch, stasionar ko‘zoynaklar) mikroskopik, yarimskopik, giperkullyar monukulyar va biokulyar apparatlar proyeksiyasiga qarab kattalashtiradi (dioproyektar). Bularning hammasidan yaqin va uzoq masofani ko‘rish uchun foydalanimadi. Hozirgi kunda turli xil yangi turdag‘i optik vositalar ishlab chiqilgan. Bular ko‘r va zaif ko‘rvuchilar uchun yozishga, o‘qishga, rasm chizishga mo‘ljallangan.

Zaif ko‘rvuchilar uchun televizion ko‘rsatuvlarni ko‘rish uchun 60 barobargacha kattalashtirib beradigan moslamalar ham mavjud. Ko‘rsatuvlarni ko‘rish regulyatsiyasini zaif ko‘rvuchilar o‘zi boshqaradi. Hozir ko‘pchilik televediniya jihozlarda ko‘rsatuvni kattalashtirish asta sekinlik bilan obektivlik yordamida fokuslashtirish mumkin. Televizion moslamalar individual va jamoa bo‘lib foydalanish turlariga bo‘linadi. Ko‘r va zaif ko‘rvuchilarni o‘qitishda shaxs televizion sistemalaridan foydalaniadi. Bu arrontal

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

usulda ta'lif berishni ta'minlaydi. Zaif ko'ruchilar uchun tayyorlangan asboblar ular mehnat faoliyatini aktivlashtirishni jumladan elektronika, raidion elektron asboblarni yig'ishda, turli materiallarni mexanik ishlov berishda yordam beradi.

Agarda yorug'lik ta'sirida ko'z ko'rish pasaysa bunda yorug'likdan saqlanuvchi turli xil linzalar qo'yiladi, bular rangli yoki rangsiz oyna bilan qoplangan bo'ladi. Kar va zaif ko'ruchilar uchun ko'rish darajasiga qarab turli xil moslama ishlab chiqilgan. Bularga ipli ninaga kirgazish moslamasi, grifel va erishi harakatlanish uchun xona moslamasi, grifel va o'lchov asboblari, ko'rlar uchun ham maxsus yozma mashinkalar va boshqalar. Ma'lum bir narsani chizish uchun ham maxsus asboblar mavjud. Gullar uchun yana maxsus "Gapiradigan kitob" ham yaratilgan bunda kasetaga har xil nutqni o'stiruvchi o'yinlar va kitobdan mavzular yozilgan bo'ladi. Ko'r va zaif ko'ruchilar orientirni bilish uchun ularda maxsus xassa ishlataladi, hamda ultra tovush lakatorlari, turli ko'rinishdagi tovush malakalari va boshqalar.

Ko'r bolalarni jismoniy tomondan rivojlantirish uchun va ularni yanada ko'proq harakatlanishlari uchun har xil trenajyor, tovush moslamalar, ovoz chiqaradigan kataklardan foydalilanadi. Maxsus texnikaviy moslamalar kasb va mehnatga o'rgatish ish joyida ishlab chiqarish jihozlari ularga elektrotexnik va radioelektron moslamalarni yig'ishga, mexanik materiallarni ishlab chiqarishga yordamlashadi. Maxsus trenajyorlar orqali ko'rlar stanokda turib ishlashlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yermakov V.P., Yakunin G.A. Osnovi tiflopedagogiki. M.: Vlados. 2000 y
2. Sabirjanova D.B., Dangalov S.M. Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish. metodik qo'llanma.
3. Qodirova F.U., Xusnuddinova Z.X. Tiflopedagogikaning umumiylari – Toshkent, 2023.